



## TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: INNOVATSION IMKONIYATLAR VA AXLOQIY MUAMMOLAR

*Nurmatova Umida Jaloliddinovna falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Samarqand davlat pedagogika instituti*

*nurmatova5055@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari falsafiy-metodologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqolada sun'iy intellektning ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishdagi innovatsion imkoniyatlari bilan bir qatorda, u bilan bog'liq axloqiy muammolar, inson omilining o'rni, mas'uliyat va qadriyatlar transformatsiyasi masalalari ochib beriladi. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim modellarining gnoseologik va aksiologik jihatlarini yoritilib, ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini saqlash zarurati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ta'lim tizimi, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, axloqiy muammolar, falsafiy tahlil, insonparvarlik.

**Аннотация:** В данной статье в условиях цифровой трансформации на основе философско-методологического подхода анализируются вопросы использования технологий искусственного интеллекта в системе образования. В статье наряду с инновационными возможностями искусственного интеллекта в модернизации образовательного процесса раскрываются связанные с ним этические проблемы, роль человеческого фактора, а также вопросы ответственности и трансформации ценностей. Освещаются гносеологические и аксиологические аспекты образовательных моделей, основанных на искусственном интеллекте, и обосновывается необходимость сохранения гуманистических принципов в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, система образования, цифровая трансформация, инновационные технологии, этические проблемы, философский анализ, гуманизм.

**Abstract:** This article analyzes the issues of using artificial intelligence technologies in the education system under conditions of digital transformation based on a philosophical and methodological approach. Along with the innovative potential of artificial intelligence in the modernization of the educational process, the article reveals related ethical challenges, the role of the human factor, as well as issues of responsibility and the transformation of values. The gnoseological and axiological aspects of AI-based educational models are examined, and the necessity of preserving humanistic principles in the educational process is substantiated.

**Keywords:** artificial intelligence, education system, digital transformation, innovative technologies, ethical issues, philosophical analysis, humanism.

### **Kirish.**

Bugungi kunda sun'iy intellekt nafaqat iqtisodiyot va sanoat sohalarida, balki ta'lim tizimida ham muhim innovatsion omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq





sun'iy intellektning ta'lim sohasiga kirib kelishi masalasi faqat texnik yoki pedagogik muammo sifatida emas, balki chuqur falsafiy mazmunga ega jarayon sifatida qaralishi lozim. Chunki ta'lim inson tafakkuri, ma'naviy kamoloti va axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlardan biridir. Shu bois, sun'iy intellektning ushbu jarayonga ta'siri bilimning mohiyati, subyektivlik, mas'uliyat va axloqiy me'yorlar bilan bog'liq yangi savollarni yuzaga keltiradi. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ta'lim sifati va samaradorligi bevosita innovatsion texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt imkoniyatlariga bog'liq bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi inson omilining rolini qayta baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur muammo ayniqsa falsafiy jihatdan dolzarbdir, chunki sun'iy intellekt bilimning subyeksi va obyektiga oid an'anaviy tasavvurlarni o'zgartirmoqda. Agar ilgari bilim berish va baholash jarayoni asosan inson tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu vazifalarning bir qismi algoritmlar zimmasiga yuklanmoqda. Bu holat axloqiy mas'uliyat, adolat va insonparvarlik masalalarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimida sun'iy intellektidan foydalanishning innovatsion imkoniyatlari va axloqiy muammolarini kompleks falsafiy tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

### **Materiallar va usullar**

Tadqiqot jarayonida falsafiy bilimlar tizimiga xos bo'lgan umumilmiy va maxsus metodlardan foydalanildi. Jumladan, dialektik usul sun'iy intellekt va inson tafakkuri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va qarama-qarshiliklarni tahlil qilishda qo'llanildi. Gnoseologik yondashuv ta'lim jarayonida sun'iy intellektning bilim hosil qilishdagi o'rni va epistemologik maqomini aniqlashga xizmat qildi. Aksiologik usul yordamida sun'iy intellektidan foydalanishning axloqiy va qadriy jihatlarini, insonparvarlik tamoyillariga ta'siri o'rganildi. Tizimli yondashuv asosida esa ta'lim tizimi murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida ko'rib chiqilib, unda sun'iy intellektning funksional o'rni tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning normativ-huquqiy va konseptual hujjatlari tahlil qilindi.

### **Natijalar va muhokama**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim tizimida bir qator muhim innovatsion imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Avvalo, u o'qitish jarayonini individuallashtirish va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim tizimlari har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish sur'ati va qiziqishlarini inobatga olgan holda individual ta'lim olishni shakllantiradi. "Ta'lim islohotiga kelsak, boshlang'ich va o'rta ta'limdan tashqari, shuningdek, ta'limda sun'iy intellekt bilan bog'liq bo'lgan ta'lim, boshqacha aytganda, "matematika, ma'lumotlar fanlari va AI" ta'limi qanday bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan"<sup>22</sup>. Shuningdek, sun'iy intellekt ta'lim jarayonida monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtiradi. Ma'lumotlarni tahlil qilish asosida o'quv natijalarini aniqlash, pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonida

<sup>22</sup>Yo'ldashev A. Ta'limda suniy intellektning imkoniyatlari. Academic Research in Educational Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. Volume 3. Issue 11. 2022. [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz)





aniqlik va obyektivlikni oshiradi. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq mazkur jarayon bilan bir qatorda jiddiy axloqiy muammolar ham yuzaga kelmoqda. Eng muhim masalalardan biri - inson omilining cheklanishi xavfidir. Agar ta'lim jarayonida sun'iy intellekt yetakchi subyektga aylansa, pedagogning tarbiyaviy va ma'naviy roli ikkilamchi o'ringa tushib qolishi mumkin. Bu esa ta'limning insonparvarlik mohiyatiga putur yetkazadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tomonidan yig'iladigan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmik adolatsizlik va mas'uliyat muammolari ham falsafiy tahlilni talab qiladi. Axloqiy nuqtai nazardan, sun'iy intellekt neytral vosita emas, balki muayyan qadriyatlar va maqsadlar asosida yaratilgan ijtimoiy konstruksiya sifatida namoyon bo'ladi.

Falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt inson tafakkuriga nisbatan ikki xil munosabatda bo'lishi mumkin. Birinchi yondashuvga ko'ra, sun'iy intellekt tafakkurni kengaytiruvchi instrumental vosita sifatida talqin qilinadi. Ushbu holatda algoritmlar insonning tahliliy imkoniyatlarini kuchaytiradi, ma'lumotlar bilan ishlash jarayonini tezlashtiradi va kognitiv yuklamani kamaytiradi. Ikkinchi yondashuvda esa sun'iy intellekt tafakkurning o'ziga xos transformatsion omiliga aylanadi. Ya'ni, inson fikrlash jarayoni algoritmik mantiqqa moslashib, qaror qabul qilishda avtomat-lashtirilgan modellar ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu holat tafakkurning refleksiv va tanqidiy xususiyatlarini zaiflashtirish xavfini yuzaga keltiradi. "Sun'iy intellektga shaxsiyat qo'shilishi uni yanada odamga o'xshatishi mumkin, lekin shu bilan birga insoniyat uchun ekzistensial xavflarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki bunday sun'iy intellekt o'z mulkini amalga oshirishni boshlashi va o'z maqsadlariga ega bo'lishi mumkin, insoniyat maqsadlariga zid bo'lishi mumkin"<sup>23</sup>.

Gnoseologik yondashuvga ko'ra, bilimning mohiyatini aniqlashda algoritmik tizimlar axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga kirib kelishi, avvalo, bilimning hosil bo'lish jarayoni haqidagi an'anaviy gnoseologik tasavvurlarni qayta talqin qilishga olib kelmoqda. Klassik pedagogik modelda bilim subyekt sifatida inson - o'qituvchi va o'quvchi qaralgan bo'lsa, zamonaviy raqamli ta'lim muhitida algoritmlar ushbu jarayonda faol ishtirok eta boshladi.

"Sun'iy intellekt ta'lim oluvchining vaqtini tejashga va ta'limda muvaffaqiyatli rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Sun'iy intellektning imkoniyatlari keng qamrovli bo'lib, u sizni qiziqtirgan savollarga javob berishi, berilgan buyruq asosida rasm chizishi yoki turli mavzularda taqdimotlar yaratishi va xattoki, turli referat va maqolalar ham yozib bera olish imkoniyatiga ega. Uning ta'lim algoritmlari, talabalarning individual xususiyatlari va o'rganish usullari asosida moslashtiriladi, bu esa har bir talabalarning o'ziga xos ta'lim yo'lidagi qobiliyatlarini oshiradi"<sup>24</sup>. Bu holat quyidagi falsafiy savolni yuzaga chiqaradi: "sun'iy intellekt bilim subyekt bo'la oladimi? Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki,

<sup>23</sup>Tillaboyev K.T. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash. International scientific and practical conference "science, education and innovation: problems, solutions and prospects" may 17-18, 2024. 540-bet.

<sup>24</sup>Sabirova O. Ta'limda suniy intellektidan foydalanish. [www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz) Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 21-81-2020 Page 575





sun'iy intellekt axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, u bilimni ma'naviy-anglash darajasida o'zlashtira olmaydi. Demak, sun'iy intellekt epistemologik jihatdan "instrumental vosita", ammo "to'laqlonli subyekt emas". Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida sun'iy intellektning roli bilim yaratish emas, balki inson tafakkurini qo'llab-quvvatlash va optimallashtirishdan iborat bo'lishi lozim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ta'lim tizimida muhim innovatsion resurs bo'lishi mumkin, biroq u "ta'lim subyektini maqomini egallamasligi lozim". Bilim yaratish, baholash va tarbiyalash jarayonida asosiy mas'uliyat inson zimmasida qolishi kerak.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilishda muhim innovatsion omil bo'lib xizmat qiladi. U o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish, bilimlarni individuallashtirish va pedagogik monitoringni takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga joriy etilishi inson tafakkuri, axloqiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois, sun'iy intellektdan foydalanishda insonparvarlik, axloqiy nazorat va falsafiy refleksiya ustuvor bo'lishi lozim.

Shuningdek, ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish masalasi texnologik samaradorlik bilan cheklanmasligi lozim. U inson tafakkuri, axloqiy mas'uliyat va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqilishi kerak. Sun'iy intellekt ta'limning maqsadi emas, balki inson kamolotiga xizmat qiluvchi vosita bo'lishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar (APA)**

1. Yo'ldashev, A. (2022) Ta'limda suniy intellektning imkoniyatlari. Academic Research in Educational Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. Volume 3. Issue 11. [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz)
2. Tillaboyev, K.T. (2024) Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash. International scientific and practical conference "science, education and innovation: problems, solutions and prospects" may 17-18. 540-bet.
3. Sabirova, O. (2020) Ta'limda suniy intellektdan foydalanish. [www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz) Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 21-81. Page 575
4. Floridi, L. (2019). The Logic of Information: A Theory of Philosophy as Conceptual Design. Oxford University Press.
5. Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.
6. UNESCO. (2021). Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. UNESCO Publishing.
7. Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Polity Press.
8. Tegmark, M. (2017). Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence. Knopf.

